

## CHEXOV HIKOYALARINING AHAMIYATI

*Olimjonova Zarnigor,**Najmiddinova Sarvara Samariddinovna**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**Farg'onan mintaqaviy filiali talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Anton Chexovning ijodi, ayrim hikoyalari, jumladan “Garov” hikoyasi va uni adabiy ta'limda o'qitish haqida ayrim mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Chexov, jahon adabiyoti, hikoya, metod, o'qitish, humor, badiiyat.

Anton Chexov- rus yozuvchisi, jahon adabiyotining umum tan olgan klassik adibi. Mutaxassisligi bo'yicha shifokor. Imperator akademiyasining og'zaki va yozma nafis adabiyot bo'yicha faxriy akademigi. Dunyo miqyosida mashhur dramaturglardan biri. Chexov asarları jahonning yuzdan ziyod tillariga tarjima qilingan. Uning pyesalari, jumladan, “Chayka”, “Uch opa-singillar” va “Olchali bog” yuz yildan buyon dunyo teatr sahnalarida qo'yib kelinmoqda. 25 yillik ijodi mobaynida Anton Chexov 900 ga yaqin turli-tuman asarlar (qisqa humoristik hikoyalar, jiddiy qissalar, pyesalar) yaratdi. Ularning aksariyati jahon adabiyotining klassikasiga aylangan. Ayniqsa, “Dasht”, “Zerikarli tarix”, “Duel”, “6- palata”, “G'ilofdag'i odam”, “Jarlikdagi kishi” keng ommaning e'tiborini qozondi. Chexov ijodi o'zida xalqchillik, tafakkur kengligi va badiiy-g'oyaviy jihatlarni aks ettirganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adib yaratgan katta-kichik asarlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, o'tmishning eng qora davrlari tasvirlanganiga guvoh bo'lamiz. Adib yashagan davrdagi “kapitalizmning dahshatli changali”, qoloqlik botqog'iga botgan oddiy xalqdan tortib amaldor-u hukmdorlarni tasvirlar ekan, o'tkir nigoh va poetik tasvirlarga alohida urg'u beradi. Adib o'zi ta'kidlagan: “Adabiyot- mening ma'shuqam, tabobat esa rafiqamdir”- degan jumлага e'tibor qaratadigan bo'lsak, shifokorlik adibning ijtimoiy hayotda egallab turgan kasbi ekanligi ma'lumbo'ladi. Rus adabiy jamoatchiligi adib ijodiga juda ko'plab ijobiy munosabat bildirgan. “Garov” (originalda “Пари”) 1889-yilda “Новое время” jurnalida bosilgan. Va qizg'in muhokamalarga sabab bo'lgan. [2.www.literatures.ru /мир русской литературы]. V. G. Korolenko: “Chexov asarlarida soddalik va samimiylilik barq urib turadi”. D. N. Ovsyanniko-Kulikovskiy fikricha “Chexov o'z asarlarida barcha tafsilotlariga berilib o'tirmay, ikki-uch badiiy-ruhiyat jihatlarini tasvirlash orqali asarni o'qishli qiladi. U o'z uslubiga ko'ra Mopassanga yaqin turadi”. Lev Tolstoy: “Chexov bu – prozadagi Pushkin”. P. I. Chaykovskiy: “Chexov ijodi bizning kelgusidagi ulkan so'z boyligimiz sanaladi”

Rus adibi A.P.Chexov dunyo hikoyachiligiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biri sanaladi.Uning hikoyalari qisqaligi ,real hayotiy voqealarga asoslangani, shuningdek, o'ziga xos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Anton Chexovning "Garov" hikoyasi o'zida inson hayotining ma'nosini tushunchasini aks ettiradi.Asar 1888-yilda, yozuvchining o'limidan olti yil avval yozilganida ham hikoya o'zida Chexovning hayot haqidagi kechinmalarini mujassam qilgan."Garov" hikoyasi inson umri erkin hayot, mutolaa, kitobning foydasi, olingan ilmnning hayotga tadbiqi ,kamolotning darajasi va boshqa hayotiy masalalar haqida fikrlashga undaydi. Ayni damda, hikoya mazmuni bankir va huquqshunosning qilmishlariga sharqona odob-axloq mezonlari bilan qaralganda, ikki dunyo saodati degan tushuncha o'rta ga qalqib chiqadi.Bir qarashda ,mahbus o'z-o'zini tarbiyalagan , komillikka erishgan va ruhan tozalangan inson sifatida ko'riladi.Men bu asarni eng yoqtirgan asarlarimdan biri desam bo'ladi. Bu "Garov" hikoyasida insonlarni tezda o'ylab fikrlamay qaror qabul qilishlari va buni ajrini umrlari bilan to'lashlari talab qilinishi kuzatiladi. Inson hayotida umridan ortiq hech bo'la olmasligini shoir o'zining "Garov" hikoyasi orqali yetkazib bergan.Bu hikoya o'zining mazmuniy va teranligi bilan ajralib turadi. Adib ushbu hikoyada rus xalqining ijtimoiy hayotini ham yoritib beradi. Shu davrda o'z xalqining dabdabavozlikka o'chligi, boylarning pulini turli qimor o'yini-yu, garovlarga tikib behuda sarflashini ochiq tasvirlaydi. Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'lishini tasvirlaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ismigul Nizomova "Chexovning "Garov" (Pari) hikoyasi haqida qaydlar" (ilmiy maqola, "EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, ilmiy maqolalar to'plami. 2021. 116-118-b).
2. Ismigul Nizomova. "Chexov ijodining ayrim jihatlari haqida". ToshDO'TAU Jahon adabiyoti va universal adabiyotshunoslik kafedrasи Xalqaro konferensiyasi. 20-iyun, 2022-yil. 112-114-betlar.
3. Abduvalitov Nurjan Buranovich, "Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida jahon adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish" disser. avt-. UO'K 82/ 89.
4. Gulhayo Shoxnazar qizi Boqijanova, "Umumiy o'rta ta'limda adabiyot o'qitish muammolari" (ilmiy maqola, "SCIENCE AND EDUCATION" SCIENTIFIC JOURNAL. 2020).